

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA | 2023

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF NAMANGAN STATE UNIVERSITY





Bosh muharrir: Namangan davlat universiteti rektori S.T.Turg'unov

Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Sh.N.Ataxanov

Mas'ul muharrir o'rinnbosari: Ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i O.Imomov

T A H R I R H A Y ' A T I

Fizika-matematika fanlari: akad. S.Zaynobiddinov, akad. A.A'zamov, f-m.f.d., prof. B.Samatov, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, f-m.f.d., dots. B.Abdulazizov, f-m.f.n., dots. A.Xolboyev.

Kimyo fanlari: akad. A.To'rayev, akad. S.Nigmatov, k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, t.f.d., v.b. prof G'.Doliyev, k.f.n., dots. T.Sattorov, k.f.n., dots. A.Hurmamatov., PhD. D.S.Xolmatov.

Biologiya fanlari: akad. K.Tojibayev, akad. R.Sobirov, b.f.d., prof. A.Batashov, b.f.d., prof. N.Abdurahmonov, b.f.d., dots. F.Kushanov, b.f.d. A.Kuchboyev, b.f.n., dots. D.Dexqonov.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. S.Yunusov.

Qishloq xo'jaligi fanlari: g.f.d., prof. B.Kamalov, q-x.f.n., dots. A.Qazaqov.

Tarix fanlari: akad. A.Asqarov, s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d, prof. A.Rasulov.

Iqtisodiyot fanlari: i.f.d., prof. N.Maxmudov, i.f.d., prof.O.Odilov.

Falsafa fanlari: f.f.d., prof. M.Ismoilov, f.f.d. dots. Z.Isaqova, f.f.d., G.G'affarova, f.f.n. dots. L.Yuldasheva , f.f.d., dots. T.Ismoilov, PhD. A.Abdullayev.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, PhD. H.Solixo'jayeva, PhD. dots. U.Qo'ziyev, PhD. H. Sarimsoqov, fil.f.d., N.Dosboyeva.

Geografiya fanlari: g.f.d., dots. B.Kamalov, g.f.d., prof. A.Nigmatov, g.f.d., dots. A.Nazarov.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. U.Inoyatov, p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. O'.Asqarova, p.f.n., dots. M.Nishonov, p.f.n., dots. A.Sattarov, p.f.n.,dots. M.Asqarova, p.f.n., dots. Sh.Xo'jamberdiyeva, p.f.d., dots. S.Abdullayev, PhD. D.Sarimsakova.

Tibbiyot fanlari: b.f.d. G'.Abdullayev, tib.f.n., dots. S.Boltaboyev.

Psixologiya fanlari: p.f.d., prof Z.Nishanova, p.f.n., dots. M.Maxsudova.

Texnik muharrir: *N.Yusupov*.

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Boburshox ko'chasi, 161-uy

Faks: (0369)227-07-61 **e-mail:** info@namdu.uz

Ushbu jurnal 2019 yildan boslab O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan fizika-matematika, kimyo, biologiya, falsafa, filologiya va pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"NamDU ilmiy axborotnomasi – Научный вестник НамГУ" jurnali O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining 17.05.2016-yildagi 08-0075 raqamli guvohnomasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan 2020-yil 29-avgust kuni 1106сонли guvohnomaga binoan chop etiladi. "NamDU Ilmiy Axborotnomasi" elektron nashr sifatida xalqaro standart turkum raqami (ISSN-2181-1458)ga ega NamDU Ilmiy-texnikaviy Kengashining 2023-yil 10-iyundagi kengaytirilgan 6-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnomma № 6). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI 2023



GLOBALLASHUV JARAYONIDA SHAXS ERKINLIGI TAMOYILLARI

Bahodir Mirzayevich Qandov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: bahodirkandov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv sharoitida inson huquqlarini ta'minlash alohida muammoga aylangani va u bugungi kunda davlatlararo, xalqlararo munosabatlarda xalqaro huquq normalarining ustuvorligi tan olinishiga xizmat qilayotgani asoslab berilgan. Ayni paytda muallif real hayotda, ayniqsa ba'zi nodemokratik davlatlarda davlat manfaatlari inson manfaatlaridan ustun qo'yilayotgani, bu esa inson huquqlarini kansituvchi tizimlarni yaratishga olib kelayotgani haqida tashvishlanib yozgan.

Maqolada ushbu sohadagi optimallashtirish jarayonlari va inson huquqlarini ta'minlash tamoyillarini amalga oshirish imkoniyatlari haqida ham muayyan fikrlar bayon qilgan.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, globallashuv, xalqaro huquq, inson manfaatlari, fuqarolik institutlari, davlatlararo munosabatlari, inson huquqlari falsafasi, global muammo, erkinlik, tenglik, majburiyat, ijtimoiy hayot, shaxsiy huquqlar, ijtimoiy huquqlar, insonparvarlik.

ПРИНЦИПЫ ИНДИВИДУАЛЬНОЙ СВОБОДЫ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Кандов Баходир Мирзаевич

доцент Чирчикского государственного педагогического университета доктор философии (PhD)

Аннотация: В статье утверждается, что защита прав человека в условиях глобализации стала особой проблемой, и сегодня она способствует признанию приоритета международного права в межгосударственных и международных отношениях. В то же время автор пишет, что в реальной жизни, особенно в некоторых демократиях, интересы государства омрачаются человеческими интересами, что приводит к созданию систем, дискриминирующих права человека.

В статье также описываются некоторые процессы оптимизации в этой области и возможности реализации принципов прав человека.

Ключевые слова: права человека, глобализация, международное право, интересы человека, гражданские институты, межгосударственные отношения, философия прав человека, глобальная проблема, свобода, равенство, приверженность, общественная жизнь, личные права, социальные права, гуманизм.

PRINCIPLES OF INDIVIDUAL FREEDOM IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

Kandov Bakhodir Mirzaevich

Associate Professor, Chirchik State Pedagogical University,
Doctor of Philosophy (PhD)

Abstract: The article argues that the protection of human rights in the context of globalization has become a particular problem, and today it helps to recognize the priority of international law in interstate and international relations. At the same time, the author writes that in real life, especially in some



democracies, the interests of the state are clouded by human interests, which leads to the creation of systems that discriminate against human rights.

The article also describes some optimization processes in this area and the possibility of implementing the principles of human rights.

Key words: human rights, globalization, international law, human interests, civil institutions, interstate relations, philosophy of human rights, global problem, freedom, equality, commitment, social life, personal rights, social rights, humanism.

Kirish

Globallashuv sharoitida inson huquqlarini ta'minlash alohida ilmiy muammoga aylandi. Bugun davlatlararo va mamlakatlararo munosabatlarda xalqaro huquq normalarining ustuvorligi tan olinayotgan bo'lsa-da, real hayotda, ayniqsa nodemokratik davlatlarda davlat manfaatlari inson manfaatlaridan ustun qo'yilmoqda, bu esa inson huquqlarini kamsituvchi tizimlarni yaratishga olib kelmoqda. Shuning uchun ham BMT va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar demokratik qadriyatlarni barcha davlatlar uchun hayot tarziga aylantirish, inson huquqlarini to'la ta'minlash va fuqarolik institutlari faoliyatini faollashtirishni global insonparvar jamiyat tomon borishning sharti sifatida qaramoqda. Konseptual ahamiyatga ega ushbu yondashuvlarni o'rganish ham ilmiy-nazariy, ham ijtimoiy-amaliy ahamiyatga egadir.

Inson huquqlarini himoya qilish kabi muammolarni globallashuv ko'zgusi orqali yanada chuqurroq o'rghanishga bo'lган intilishning kengayishi ushbu mavzuning murakkabligi va xilmalligini ochib berish, shuningdek, uning mohiyati va ijtimoiy ildizlarini tadqiq etishni taqozo qiladi. Globalashuv jarayonida "Inson huquqlari" atamasini ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatidagi mohiyatini aniqlash, bunga oid amaliy va nazariy qarashlarni falsafiy darajada umumlashni talab etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, globallashuv davlatlararo munosabatlarni rivojlantirishning ajralmas qismi bo'lган bugungi davrda inson huquqlariga oid bilimlarni tizimlashtirish uchun ushbu huquqlarning tabiatini, ularning siyosat va axloq bilan o'zaro munosabatini e'tiborga olish zarur.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Inson huquqlari g'oyasi demokratiya to'g'risidagi ta'limotlar xazinasini to'ldirgan muhim ijtimoiy-falsafiy va siyosiy-huquqiy hodisadir. Insonning tabiiy huquqlari g'oyasi qadimgi yunon mutafakkirlari Aristotel, Platon, Demokrit, Protagor, Antifont, Likofron, Zenon, qadim Xitoy donishmandlari Mao-szi, Konfutsiy va boshqalarning asarlarida uchraydi. Insonning tabiiy huquqlari g'oyasi uyg'onish davri taniqli mutafakkirlar G.Grotsiy, J.Lokk, B.Spinoza, Sh.Monteske, D.Didro va boshqalarning asarlarida o'z aksini topdi.

J.A. Kerimov, S.A. Alekseyev, V.S. Nersesyans kabi olimlarning huquq nazariyasiga oid asarlari huquq, jumladan, inson huquqlari va erkinliklarining umumiyligi huquqiy metodologiyasini ishlab chiqishda huquqiy nazariy manba bo'lib xizmat qiladi[1].

Shuningdek, o'zbekistonlik olimlar H.Raxmonqulov, H.B.Boboyev, A.X.Saidov, U.B.Tojixanov, Z.N.Islomov, X.T.Odilqoriyev, Sh.Z.O'razayev, M.A.Rajabova, A.Tursunov, E.Umaroxunov, B.I.Ismoilov, A.Qosimov, G.Neklessa, A.Rahmonov ham O'zbekistonda huquq tizimida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, xalqaro huquqning ijtimoiy-milliy makonga implementatsiyasi, xalqaro shartnomalarga amal qilishning yuridik mexanizmlariga oid muhim muammolarni tadqiq qilganlar. Shu bilan birga ularda inson



huquqlari muammolari ham o'rganilgan. Biroq ular o'z tadqiqotlarida muammoning tarixiy-ijtimoiy xususiyatlaridan emas, balki milliy huquqiy tizimning xalqaro huquq normalariga mosligi nuqtai nazaridan kelib chiqadilar, shu bois ular o'z diqqatini muammoning yuridik mohiyatini o'rganishga qaratadilar.

Bugungi murakkab zamonaviy globallashuv jarayonlarining ijtimoiy va siyosiy amaliyoti inson huquqlarining yangi muammolari, paradigmalari va konsepsiyalari paydo bo'l shiga sabab bo'lmoqda. Globallashuv jarayonida inson huquqlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilishda nazariy-uslubiy ehtiyojlar muhim ahamiyatga ega. Hozirgi globallashuv sharoitlarda bu borada ham yangi ilmiy yo'nalishlar rivojlanmoqda, ya'ni inson huquqlari falsafasi, inson huquqlari mantig'i, siyosatshunoslik va inson huquqlari, inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq, ijtimoiymadaniy sohadagi inson huquqlari, inson huquqlarining yangi tipologiyalari, inson huquqlarining yangi avlodlari, inson huquqlari imitatsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va inson huquqlari kabi mavzular e'tiborga molikdir. Ilmiy uslublar va yondashuvlarning bu kabi rang-barangligi bilan bir qatorda, inson huquqlari nazariyasining fanlararo va integral tabiatga ega bo'lgan ilmiy bilimlarning mustaqil sohalari sifatida asta-sekin paydo bo'lishi yuz bermoqda. "Inson huquqlari nazariyasi fan sifatida ushbu holatning tabiatini, uning genezisi, ijtimoiy, falsafiy, siyosiy, axloqiy, diniy asoslarini o'rganishga qaratilganki, ushbu fenomen ularning kontekstiga kiritilgan. Inson huquqlari fanida inson huquqlari va davlatning o'zaro harakatini o'rganishga alohida o'rinn ajratilgan" [1,2: 24,3].

Natijalar

Mazkur maqolada globallashuv sharoitida inson huquqlari falsafasini inson huquqlari nazariyasiga kiritish yoki kiritmaslik haqidagi munozarali masalani chetga qo'yib turib, asosiy e'tiborni inson huquqlari ijtimoiy holat sifatida rang-barang, ko'p qirrali, zamonaviy va gumanitar nazariyada o'rganiladigan xususiyatlarga boyligi bilan ajralib turadigan tushuncha ekaniga e'tibor qaratamiz.

Ma'lumki, globallashuv jarayonida inson huquqlarining ilmiy asoslangan ijtimoiy-falsafiy asoslari hali ilmiy tadqiq qilinmagan. Inson huquqlari – bu ijtimoiy fenomen. Hayotning elementi sifatida inson huquqlari bir tomondan davlat hokimiyatining o'zboshimchaligiga nisbatan qarshilik vositasi bo'lib hisoblanadi va uning hukmronligini chegaralaydi. Boshqa tomondan, ular jamiyatni davlat va boshqa tuzilmalarni shakllantirish, ularning ishlarida ishtirok etishga jalb qilgan holda, hokimiyatning xalqdan uzoqlashuvini bartaraf qiladi.

Inson huquqlari – ijtimoiy hayotning ifodasidir. Bu mutlaqo ijtimoiy holat bo'lib, u ijtimoiy sub'ye ktning shaxsiy, insonning asosiy shaxs ekanligi tamoyilini aks ettiradi. Ushbu huquqlar ijtimoiy aloqalarni tartibga soladi va muvofiqlashtiradi, jamiyatning har bir a'zosi erkinligi va hurmatini umumiy ezgulik va ijtimoiy barqarorlik bilan uyg'unlashtiruvchi munosabatlar tamoyillari va me'yorlarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Inson huquqlari – ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatga ega hayotiy fenomen. Uning insoniyat hayotida paydo bo'lishining o'ziyoq xususiy mulkning davlat mulkidan ajratish bilan bog'liq. Keyinchalik ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar davlatni qashshoqlik va ocharchilik, ishsizlarga, onalarga, bolalarga, nafaqaxo'r larga, barcha qiynalgan insonlarga yordam berish muammolarini bilan jiddiy shug'ullanishga majbur qildi. Inson huquqlarining avval boshdan shaxsiy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan yo'nalishi vaqt o'tishi bilan jamoaviy tendensiyalarga ega bo'ldi va davlatni va individni moddiy farovonlikning eng zarur bo'lgan muammolarini hal qilish yo'lida hamkorlik qilishga majbur qildi.



Inson huquqlari – yuridik tushuncha, erkinlik fenomeni. Har qanday individ huquqlardan foydalanishni qiyinlashtiruvchi holatlar, ya’ni to’qnash keluvchi manfaatlar, ziddiyat va qarama-qarshiliklar holatida mavjud bo’lganligi sababli, ularni amalga oshirishda unga kafolat va yordam kerak bo’ladi. Bunday kafolat bo’lib qonun o’rtaga chiqadiki, u shaxslarni bir-biridan ajratmaydi va hamma uchun bir xil qoidalarni ko’zda tutadi. Shu bilan insonlarning huquqlar borasida tengligiga erishiladi, inson huquqlari qonunning qat’iy mezoniga asoslanadi.

Inson huquqlari ijtimoiy-ma’naviy hodisa hamdir. Bu – insonning jamiyatdagi o’rni, uning ehtiyojlari, manfaatlari, imkoniyatlari, shuningdek, majburiyat va mas’uliyatini ifoda etuvchi hissiyotlar, tuyg’ular, kechinmalar va shu kabi boshqa holatlarning alohida dunyosidir.

Globallashuv jarayonida axborotlashgan jamiyatini qaror topishi inson huquqlarini fenomenal holat sifatida anglashni talab etadi. Gumanitar madaniyat va ta’lim o’z huquqlaridan foydalana oladigan va ularni himoya qila oladigan fuqaro shaxsini shakllantirish bilan bog’liq. Shuning uchun, inson huquqlari tarbiya vositasi sifatida shaxs tafakkuri va tabiatining alohida usulini shakllantiradi, unga o’z huquqlarini sharafli va ijtimoiy burch sifatida anglashga yordam beradi. Mazkur sohadagi savodxonlikni shakllantirish inson huquqlari madaniyatining ijtimoiy darajalarida qaror toptirilgani kabi individual darajalarda ham qaror toptiradi.

Inson huquqlari – bu haqiqiy tarixiy fenomen. U tabiiy tarixiy sharoitlarda yuzaga keldi va Yevropada XVIII asr oxiridagi inqilobiy o’zgarishlarning omili bo’ldi. Amerika va Yevropada o’sha davrda yaratilgan deklaratsiyalarda muayyan huquqiy qoidalar majmui belgilangan bo’lib, ular tufayli individning shaxsiy, mulkiy va fuqarolik mustaqilligi qaror topdi, ro’y berayotgan modernizatsiya jarayonlariga muvofiq bo’lgan shaxs tipi paydo bo’ldi. Jahonning boshqa hududlarida inson huquqlari modernizatsiya yo’liga turgan davlatlardan bevosita o’rganish natijasida yuzaga keldi.

Inson huquqlari o’ziga xos *global muammo* bo’lib [3], urushlarning oldini olish va tinchlikni himoya qilish, dunyo terrorizmi va harbiy to’qnashuvlarga qarshi kurash, demografik, ekologik, energetik, oziq-ovqat, ma’naviy krizislarning oldini olish, er kurrasi kelajagini himoya qilish va shu kabi muammolarni o’zida jamlaydi va integratsiyalaydi. Bugungi zamонавиyy globallashuv jarayonida inson huquqlari instituti individlarni shunchaki katta miqyosdagi ijtimoiy tizimlar bilangina emas, balki butun Yer sharidagi insoniyat bilan bog’laydi.

Bugun xalqaro terrorizm va diniy ekstremizm insoniyat hayotiga, sivilizatsiyaga, keljakka katta xavf uyg’otmoqda. Bu ayni paytda inson huquqlari va erkinliklarini poymol qilish hamdir. Totalitar boshqarishga moyil kuchlar esa xavfsizlikni ta’minalash bayrog’i ostida inson huquqlarini o’z manfaatlariga muvofiq chegaralashga intilmoqda. Ushbu o’ta murakkab va ziddiyatlarga to’la vaziyatda inson huquqlari va demokratik qadriyatlarni shakllantirish borasida to’plangan yutuqlarni asrab qolish, ularni ko’paytirish muhim ahamiyatga ega. Globallashuv jarayonlarida ulardan foydalanish va globallashuvni ayrim davlatlar yoki siyosiy kuchlar ko’zlayotgan model tarzida emas, balki barcha davlatlar, xalqlar, etnomadaniy paradigmalar yaratadigan umumsayyoraviy ijtimoiy birlik sifatida qaror toptirish yo’llarini izlash zarur. Bu esa globallashuv sharoitida



inson huquqlarini ta'minlash va demokratik qadriyatlarni mustahkamlash borasida maxsus tadqiqotlar o'tkazishni taqozo etadi.

Muhokama

Inson huquqlarining ijtimoiy-gumanitar fanlar tomonidan o'rganiladigan murakkab va ko'p qirrali xarakteri bu fenomenning u yoki bu yondashuvning xususiyatni namoyish etuvchi ta'riflarining anchagina qismini belgilab beradi. Buning natijasida inson huquqlarining chuqur mohiyatini aniqlash, unga oid tushunchalarni tizimlashtirish, ularning ma'lum ierarxiyasini tuzish, ya'ni inson huquqlarining falsafiy ob'yekt sifatidagi tadqiqoti muammozi yuzaga keldi. Bunda ijtimoiy falsafa, ontologiya, bilish nazariyasi, aksiologiya, etikaning ilmiy vositalaridan foydalanish zaruriyati tug'ilди.

Konseptual nuqtai-nazardan inson huquqlari tushunchasining mohiyatan va mazmunan to'ldirilishida, shubhasiz, ijtimoiy va gumanitar fanlar tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillarga tayanish lozim. Ularga, shu jumladan, quyidagilar kiradi[4]:

- zamonaviy globallashuv sharoitlarda inson huquqlari yuridik jihatdan talqin qilinishidan yiroqlashadi hamda insonparvarlikni ifoda etadi, inson borlig'ining gumanistik holatiga muvofiqlashadi;
- inson huquqlarining mohiyati – bu doimo o'z chegarasiga ega bo'lgan inson erkinligida bo'lib, individ intilishlarini chegaralash uning majburiyatidir;
- inson huquqlari – bu nafaqat individual, balki ijtimoiy darajada namoyon bo'ladi va uning vazifasi individual va ijtimoiy manfaatlar, shaxs va davlat, shaxs va jamiyat o'rtasidagi muvozanat uyg'unligini topish va ularni mustahkamlashdan iboratdir;
- inson huquqlari tamoyillari va me'yorlari shaxsning qadr-qimmatini hurmat qilish asosida ijtimoiy munosabatlarni boshqaradi va qonun orqali mustahkamlaydi, ya'ni qonunga bo'ysungan erkinlik huquqqa aylanadi;
- inson huquqlari himoyalovchi tabiatga ega, ideal holatda ular odamlarni har qanday zo'ravonlik va majburlashdan himoya qilishi kerak. Buning uchun turli darajadagi – individual, jamoaviy, davlat - huquqiy, xalqaro huquqiy vositalar tizimi mavjud;
- inson huquqlari asosida uning manfaatlari va ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan individning rang-barang talablari yotadi. Moddiy va ma'naviy boyliklarning aniq biror bir qismiga talablar paydo bo'ladiki, ularga erishish, huquqlar tufayli kafolatlanadi;
- inson huquqlari individning, ya'ni shaxsning asosan o'z harakatlariga ishongan, erkinligidan foydalangan va o'z majburiyatlarini bajargan holda mustaqil harakat qilishi, boshqa shaxsdan muvofiq harakat qilishni talab etish, ba'zi ijtimoiy manfaatlarni olishi va ularga ega bo'lishidir;
- inson huquqlari shaxsning ijtimoiy faolligini rag'batlantiradi, uning o'z faoliyati va ijodiga oid iqtidorini ochish imkonini beradi, erkin rivojlanishiga yordam beradi;
- inson huquqlari jamiyat rivojlanishidagi belgilangan bosqichning natijasi bo'ldiki, unda har bir shaxsning (individning) jamiyat taraqqiyoti uchun muhimligini anglash yuzaga keldi. Bundan tashqari, bu davrda insonning hayot uchun muhim bo'lgan ehtiyojlarini ma'lum ma'noda ta'minlash imkonini bergen ijtimoiy-iqtisodiy darajaga erishildi.

Inson huquqlarining mohiyati va mazmun jihatidan elementlarini ifoda etuvchi mazkur qoidalarga muvofiq falsafiy tamoyillarni shakllantirishda ularning talab va mazmunlarini bevosita yoki ko'chirilgan ko'rinishda foydalaniib, hisobga olish zarur. Bunda inson



huquqlarining mohiyatini ochib beruvchi eng muhim falsafiy elementlar - erkinlik va insonparvarlikni o'rganishga alohida e'tibor qaratish kerak.

Umuman olganda, inson huquqlarga doir ijtimoiy-falsafiy tamoyillar quyidagilarni nazarda tutadi:

a) barcha insonlar erkin va ularning bu erkinligini ifoda etuvchi huquqlarini tan olmaslikka hech kimning haqqi yo'q. Erkinlik – bu boshqalarga zarar etkazmaydigan barcha ishni bajarish imkoniyatidir;

b) erkinlik mutlaq bo'lisi mumkin emas, chunki u har bir insonga tegishli, odamlar esa jamiyatda yashaydi. Erkinlikning cheklanishi ulardan hammaning yanada to'liq va keng foydalanishi uchun zarur. Erkinlikning o'zaro tan olinishi erkinlikning bir qismidan o'zaro voz kechishni keltirib chiqaradiki, u erkinlikning kafolatlangan me'yori bilan taqdirlanadi. Erkinlikning chegaralari har bir inson uchun belgilangan bo'lib (erkinlikning bir xil me'yori), uning daxlsizlik mohiyati sifatida tan olinadi va belgilanadi;

v) hamma uchun bir xil belgilangan erkinlik me'yori bir vaqtning o'zida har bir insonning mazkur erkinlik me'yorini buzadigan hamma narsadan voz kechish majburiyatini ko'zda tutadi. Shunday qilib, teng me'yorda cheklovsiz erkinlik bo'lmaydi, majburiylarsiz huquqlar ham yo'q. Huquq va majburiyatlar – har qanday faollikning yagona birgalikdagi sifatlarning ko'rsatkichlaridir;

g) erkinlik va tenglik insonning ichki mohiyatini tavsiflagani tufayli, ular shu darajada birlamchi ya'ni insonning tug'ma huquqlari hisoblanadi, qolgan hamma huquqlar ularning hosilasidir;

d) erkinlik va tenglik boshlang'ich va kelib chiqishi tabiiy bo'lgan huquqlar yuridik tamoyillar sifatida o'zgarmasdir. Ammo ularning aniq shakllari u yoki bu davlatlar va jamiyatlarda qabul qilingan ijtimoiy munosabatlarga bog'liq ravishda o'zgaradi[5: 70-71].

N.A. Berdyayev inson erki haqida eng ko'p fikr yuritgan va ko'p asarlar yozgan faylasuf sifatida ta'kidlaydi: "Erk, real borliq sifatida, ratsional, intellektual falsafa uchun irratsionaldir, biroq ruhning butunligiga ko'ra falsafa uchun uni anglash mumkin hodiadir"[6: 36]. Shu nuqtai nazardan u, "falsafa erkin bo'lisi zarur, haqiqat izlashi zarur, shuning uchun ham erkin falsafa, erk falsafasi ilohiyga keladi, faqat ruhning hayotni butun idrok etishi orqali haqiqatni va borliqni anglaydi" [7: 37], degan xulosaga keladi. Lekin faylasufning irratsionali, ilohiy haqidagi fikri ijtimoiy borliqdan uzilgan mutlaq transsenssiya emas, ular insonning o'zligini anglashga, o'z ruhidagi yaratishga, anglashga bo'lgan kuch-qudratni ilg'ashga, umuman, butunni idrok etishga qaratilgandir. Uning fikricha insonning ijtimoiy borliqdagi, davlat, siyosiy institutlar, oila, faoliyati bilan bog'liq erk va huquqlarini ham "erkin ruhning ehtiyoji", "ruh da'vatlari", ushbu ruhlarga monand falsafaning izlanishlari bo'lib hisoblanadi. Chunki, o'z ruhini, ruhning butunga intilib erkni, ozodlikni anglashigina insonni ijodga, yaratishga, anglashga, betakror yo'ldan borishga undaydi, "personallashgan falsafa"ni butun bilan bog'laydi. Xuddi shu nuqtada shaxs ruhi bilan butun ruhi, shaxs falsafasi bilan umuminsoniy falsafa, shaxs erki, huquqi bilan umuminsoniy erk, huquq uyg'unlashib, yaxlitlik kasb etadi. Ushbu uyg'unlik bo'lmasa, yaxlitlikka erishilmasa shaxs bilan ijtimoiy borliq, ruh bilan transsenssiya, erk bilan mas'uliyat o'rtasida "xitoy devori" paydo bo'ladi, erk erksizlikka, huquq huquqsizlikka, ya'ni erk va huquq ayrim shaxslarning zo'ravonligi, bedodligi, anarxiyasiga aylanadi. "Ruh erkinligi" yoki "erkin ruh" deyilganida esa, xususiy (shaxsiy)



bilan umumiy (umuminsoniy) o'rtasidagi bog'liqni, erk, huquq deganida esa shaxsning, shaxs ruhining butunga, umuminsoniyga intilishi nazarda tutiladi. Shuning uchun ijod, erk, ruh "Xudodan pastga emas, balki insondan Xudoga yo'naltirilgan bo'ladi"[8: 232]. Bu aslida "personalistik falsafa" nazariyasidan kelib chiqqan xulosalardir.

Ijtimoiy borliq uchun insonning javobgarligini, mas'ulligini ta'kidlashga qaratilgan fikrlar ham muhim. Chunki, insonga erk, huquq, imkoniyatlar berish qanchalik yutuq, olivjanoblik bo'lmasin, ular mas'uliyatsiz qolishi, mas'uliyatsizlikni keltirib chiqarishi mumkin emas. Shu jihatdan ham bugun falsafiy-huquqiy adabiyotlarda keng muhokama qilayotgan huquq va axloq (mas'uliyat, javobgarlik, ezbilikni qaror toptirish va boshqalar) uyg'unligi, ularning bir-biriga bog'liqligi masalalari diqqatni tortmasligi mumkin emas.

Inson huquqlari ko'p jihatdan ahloq kategoriyasi bo'yicha (odamiylik yaxshilik sifatida) va ahloqiy namuna sifatida baholandi, shaxsning ijtimoiy-ahloqiy shakllanishining manbasiga aylandi.

Inson huquqlari fenomen sifatida ijtimoiy-falsafiy, gumanistik, ahloqiy yondashuvlar hamda erkinlikning ko'p qirrali xususiyatlari va erkinlik me'yorlarini namoyon etadi. Xususan, ahloq nafaqat tashqi erkinlik chegaralarini belgilaydi, balki shaxsning o'z ichki cheklovini ham talab etadi. Ahloqiylik maqsadlar va foydalilanigan qadriyatlar bo'yicha ham baholanadi. Agar vositalar ahloqsiz bo'lsa, unda maqsad ham ahloqsizdir. O'z huquqlarini ahloqsiz vositalar va usullar bilan amalga oshirish inson huquqlarini ideal sifatida badnom qilmay qolmaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytsak, falsafiy nuqtai-nazardan inson huquqlari - bu individning odamiylik, obro'-e'tibor tamoyillariga asoslangan va uning erkinliklari me'yorlarini belgilab beradigan jamiyat va davlat tomonidan kafolatlanadigan va rag'batlantiriladigan shaxs rivojlanishining ajralmas xususiyatlari, eng muhim imkoniyatlaridir.

Ikkinci jahon urishidan so'ng inson huquqlarining yangi avlodni sifatida qabul qilingan xalqaro deklaratsiyalar guvohlik berishicha, hozirgi vaqtida dunyoda inson huquqlari konsepsiysi haqiqatan ham insonni universal anglash tendensiyasini tasdiqlaydi. Bunday anglashning asosi sifatida avvalo ijtimoiy huquqiy soha chiqadiki, shuning o'zi ijobiy holat. Ammo, universal me'yorlarni amalga oshirishning ijobiy tomonlari inson huquqlarining ijtimoiy-falsafiy mohiyati chuqurlashtirilgan va aniqlashtirilgan holdagini ochiladiki, bu narsa uning zamirida shaxsning erkin rivojlanishi va o'z-o'zini kamolga etkazishi, uning qadr-qimmati va baxti kabi buyuk qadriyatlarni saqlab qolish bilan bog'liq bo'lган azaliy savolga javob shakllantirilgandagina amalga oshadi.

Insoniyat, shubhasiz inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash borasida keyingi asrlarda katta yutuqlarga erishdi. BMTning nufuzli xalqaro tashkilotga aylanganini, u tomonidan qabul qilingan huquqiy hujjalarning ahamiyati, mavqeい va milliy huquq tizimlarini shakllantirishdagi ustuvorligi oshib borayotganini sezmaslik mumkin emas. Aynan ushbu xalqaro huquqiy hujjalarni, Konvensiyalar va shartnomalar g'ayriinsoniy, g'ayridemokratik hodisalarining global voqelikka aylanishiga asosiy to'siq bo'lmoqda. BMT to'g'risida qanday fikrlar bildirilayotganidan qat'iy nazar bugun global muammolarni hal etishga qodir undan boshqa xalqaro tashkilot, xalqaro kuch yo'q. Aynan ushbu tashkilotning sa'y-harakatlari tufayli inson huquqlari global tushunchaga aylandi, ushbu huquqlarni umumsayyoraviy miqyosda real voqelikka aylantirishning tashkiliy - yuridik, xalqaro hammaslaklik mexanizmlari yaratildi.



Bugungi kunda inson huquqlarini ta'minlashning global vazifa ekani isbot talab qilmas haqiqatdir. Jamiyat bilan shaxs, insoniyat bilan inson o'rtasidagi munosabatlarning muvofiqlashtirilishi, uyg'unlashtirilishi global taraqqiyotning shartidir. Shuning uchun aynan global taraqqiyot masalalari inson huquqlarini ham uning maqsadiga muvofiq hal etishga undaydi va bu borada har birimizga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – Toshkent: "Konsauditinform-Nashr", 2006. – B. 24.
2. Права человека: учебник для вузов. (отв. ред. Э.А. Лукашева.) – Москва: Норма, 2013. – С.3.
3. Глухарева Л.И. Права человека в современном мире. – Москва: Юрист, 2014. – С.70-71.
4. Бердяйев Н.А. Философия свободы. Смысл творчества. – Москва: "Правда", 1989.
5. Бердяйев Н.А. Диалектика божественного и человеческого. – Москва: "Фолио", 2005.
6. Falsafa qomusiy lug'at. Tuzuvchi va ma'sul muharrir Q.Nazarov. – Toshkent: "Sharq", 2004.
7. Qandov B.M. Globallashuv jarayonida inson huquqlarining ijtimoiy-falsafiy tahlili. Falsafa doktori (PhD)... dis.avtoref. – T., 2020. – B.60.
8. Гаффарова, Г. (2023). Молодежного Сознания В Цифровом Обществе. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 13-17.



4	Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalarini o'qitishdagi muammolar va yechimlar Baymuratova I.V.....	148
5	Mutolaa madaniyatini shakllantirishda kutubxona va yangi axborot texnologiyalarining o'rni Abdulazizov A.H.....	152
6	Uzbekistanda rahbar ayollar imijini oshirishning ob'yektiv va sub'yektiv shart-sharoitlari G'afurova M.A., G'affarova G.G.....	159
7	Ekologik xavfsizlik sohasidagi xalqaro hamkorlikning institutsional mexanizmlari Hayitov J.....	165
8	Патриотизм и верность воинскому долгу – как основное качество военнослужащего Абдулхаев А.А.....	171
9	Markaziy Osiyo davlatlari hamjihatligi va birligining ijtimoiy-falsafiy jihatlari Haydaraliev Sh.....	175
10	Global inqiroz sharotida ekologik xavfsizlikni ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari Alikulov X.A.....	179
11	Нравственный идеал и патриотическое воспитание студентов в современном обществе Хатамова Р.З.....	185
12	Jamiyatda g'oyaviy birdamlikni ta'minlash zaruriyati Sayidov M.X.....	189
13	Ekologik dunyoqarashni rivojlantirishda milliy va umuminsoniy manfaatlar birligi Quyliyev T.....	194
14	Понятие и особенности "Глубоких фейков" Ибрахимов Б. Б.....	201
15	Jamiyatni demokratlashuv jarayonlarida ijtimoiy innovatsiyalarning roli G'apparov E.O.....	206
16	Barkamol inson vatanparvarlikning bosh substansional komponenti-sub'yekti sifatida Kalkonov E.T.....	212
17	Globallashuv jarayonida shaxs erkinligi tamoyillari Qandov B.M.....	219

10.00.00

FILOLOGIYA FANLARI
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PHILOLOGICAL SCIENCES

1	O'zbek tilida sinonimiya munosabatini vujudga keltiruvchi omillar Xakimova M.K.....	227
2	Zamonaviy o'zbek tilini tillararo integratsiyasi Yuldashev M.M.....	236
		903